
Javpaya massivi va Vargan mavzesiga press-tur tashkil etildi



Javpaya massivi va Vargan mavzesiga press-tur tashkil etildi

Aytish joyizki, tumanimizda bo'layotgan o'zgarish va islohotlar inson manfaatiga qaratilgan va bu o'zgarishlarni xalqimizga munosib va haqqoniy tarzda yetkazib berishdek yuksak mas'uliyat ijod va qalam ahli – ommaviy axborot vositalari vakillari zimmasiga yuklatilgan. Tumanimizning Vargan va Javpaya massiviga tashkil etilgan navbatdagi press-turda Respublika va viloyatimizning ommaviy ahborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Chashma mahalla fuqarolar yig'inining Vargan massivida tashkil etilgan za'faron plantatsiyasi va Qal'acha mahallasi hududida joylashgan Javpayadagi o'rikzor jurnalistlar, ayniqsa, O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi – UZA ijodkorlarining diqqat markazida bo'ldi.

Za'faron o'simligi, eksportbop mahsulot ekanligi va uning shifobaxsh xususiyatlari haqida mazkur xo'jalik rahbari Rashodjon Odilboyev tomonidan to'liq ma'lumot berildi.

Javpaya massivida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik va ushbu sa'y-harakatlar mahsuli bo'lmish yangi o'rikzor barpo etilgani xususida ham lavhalar tasvirga olindi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-05-25 15:34:42